

BADIIY TARJIMADA GRAMMATIK KOGEZIYA VOSITALARINING AKS ETISHI

Lobar Tangriyeva Nasriddinovna

O'zbekiston milliy universiteti

Mustaqil izlanuvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada matn bog'liqligini ta'minlovchi asosiy kategoriyalardan biri – kogeziya haqida so'z yuritiladi. Maqolaning maqsadi – grammatik kogeziyani ifodalovchi ayrim vositalarning badiiy tarjimada aks etishini ko'rib chiqishdan iborat. Istalgan matnda gaplar o'rtasidagi mantiqiy-grammatik bog'liqlikni ifodalash, avval bayon qilingan ma'lumotlar asosida chiqarilgan xulosalarni jamlash uchun ko'pgina konnektorlar ishlatiladi va ular grammatik kogeziyani ifodalovchi vositalar qatoriga kiradi. Ushbu maqolaning tadqiqot materialı sifatida E.A'zamning "Pakananing oshiq ko'ngli" hikoyasi va uning Sh.Minavarov tomonidan fransuz tiliga qilingan tarjimasi tanlangan.

Kalit so'zlar: grammatik kogeziya, vosita, badiiy tarjima, konnektorlar

Matnning yaxlit bir hosila sifatida vujudga kelishida, uning ravonligini ta'minlashda asosiy kategoriyalar sifatida kogeziya va kogerentlik yuzaga chiqadi. Bu ikki kategoriya bir-birini to'ldirgan holda grammatik, leksik va stilistik qoidalarga asoslangan, mantiqan bog'langan yaxlit bir ma'lumotni matn ko'rinishida o'quvchiga yetkazishga xizmat qiladi. Ma'lum bir matnda bog'liqlik hosil qilish uchun turli xildagi lisoniy vositalardan foydalanish mumkin. Yuqorida biz kogeziya haqida gapira turib, bu kategoriya matnning leksik-grammatik bog'liqligini ta'minlashga xizmat qilishini aytib o'tdik. U matnning ichki bog'liqligini anglatib, uning yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi. Kogeziya matnda nima haqida gap ketayotganiga emas, unda semantik yaxlitlik qanday vujudga kelganiga javob beradi [3]. Kogeziya matnni xarakterlovchi asosiy aspekt sifatida zamonaviy tilshunoslikda keng o'rganilmoqda. Rus tilshunoslaridan I.R.Galperinning ko'plab tadqiqotlari kogeziya tushunchasiga bag'ishlangan bo'lib, tadqiqotchi uning matn yasovchi rolga alohida urg'u beradi va uni bir necha xil turga ajratadi [1]. Masalan, I.R.Galperinning fikricha, kogeziya – bu matndagi alohida qismlar o'rtasidagi leksik, grammatik va semantik bog'liqlik shakli bo'lib, bu shakl matndagi bir aniq qismdan boshqasiga o'tishni ifodalaydi [2]. Tilshunos A.Verner kogeziyaga ta'rif berar ekan, uni har xil til birliklari vositasida yaratilgan matnning ichki chiziqli tuzilishi, deya tushuntiradi [5]. G'arb tilshunoslari M.A.K.Hallidey va R.Hasan o'zlarining «Cohesion in English» nomli kitobida kogeziyaning beshta asosiy mexanizmini ajratib ko'rsatadilar: 1)

referensiya (ekzofora, anafora va katafora – endoforaning turlari sifatida), 2) ellipsis (soʻzning takrorlanishi oʻrniga uning tushib qolishi), 3) substitutsiya (soʻzning takrori oʻrniga umumiyroq tushunchani beruvchi boshqa soʻz berish) – grammatik kogeziya sifatida, 4) leksik kogeziya (gaplar va kollokatsiyalardagi bogʻliqlikni taʼminlovchi leksik elementlarning takrorlanishi), 5) jumlarlar orasidagi mantiqiy va zamonlararo bogʻliqlikni taʼminlovchi konnektorlarning ishlatilishi [4].

Yuqorida aytib oʻtganimizdek, grammatik kogeziyaning vositalaridan biri konnektorlardir. Konnektorlar biror matn tashkil topishi uchun asos boʻluvchi gaplar, soʻzlar guruhi yoki soʻzlarning aynan oʻzidir. Ular matnda bir qismdan ikkinchi qismga oʻtish, tushuntirish berish, matndagi mantiqiy ketma-ketlikni taʼminlash va xulosa qilishga xizmat qiladi. Konnektorlar koʻpincha paragraf boshida yoki aksincha, uning oxirida joylashadi. Shuningdek, bitta matn ichida makon, zamon, mavzu va dalil-isbotlarning oʻzgarishini taʼminlash ham konnektorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu maqolada biz aynan grammatik kogeziyani ifodalovchi shunday vositalarning badiiy tarjimada aks etishini koʻrib chiqamiz.

Grammatik kogeziyaning doimiy vositasi sifatida bogʻlovchilar va kirish soʻzlar yuzaga chiqadi. Taʼkidlash kerakki, badiiy matnda boshqa barcha turdagi matnlar singari aytilayotgan fikrni undan oldin aytilgan fikrga qarshi qoʻyish maqsadida koʻpincha *lekin* zidlov bogʻlovchisi ishlatiladi:

[...]Oʻzini salobatli tutishiyu salmoq bilan odim otishi bir pul: goʻyo yosh bola kattalarga taqlid qilgandek kulgili, bachkana chiqardi. Tovushini ne maqomga solmasin, natija oʻsha-oʻsha – baayni chala puflangan surnay. Lekin — koʻngli !.. E, bu bir boshqa dunyo ekan. Koʻngil — podsho. Koʻngil — xazina. Koʻngil — balo. Egam uni odamning sirt-siyogʻi, boʻy-basti yoki mol-mulkiga qarab taqsimlamaydi. [...] [6].	[...] <i>Le comportement solide, marche aux pas solides ne valaient pas un sou, car ils rappelaient le pastiche du petit enfant aux adultes, étaient, pour cette raison, ridicules et peu sérieux. Et sa voix, malgré tous ses efforts, rappelait celle de la flûte mi-soufflée.</i> Mais – son âme!.. Eh, c'est tout un autre monde. L'âme est le roi. L'âme est le trésor. L'âme est le malheur. Le Créateur ne la distribue pas d'après le visage, la taille ou les biens de l'homme. [...]
--	---

Yuqoridagi tarjima matniga eʼtibor beradigan boʻlsak, tarjima jarayonida tarjimon asliyati matnidagi *lekin* zidlov bogʻlovchisiga mos holda fransuz tilidagi *mais* bogʻlovchisidan foydalangan. Asliyatdagi hikoyada *lekin* zidlov bogʻlovchisi bilan birga

ammo, biroq kabi zidlov bog'lovchilari ham ko'p o'rinlarda ishlatilgan bo'lib, tarjimada ular o'rniga ham **mais** bog'lovchisidan foydalanilgan.

Yuqoridagi holatning aksi sifatida asliyatdagi hikoyada to'rtta o'rinda ishlatilgan **demak** kirish so'zi, tarjimada uch marta turli ko'rinishda aks etgan:

[...] Goho u o'sha avlodidan norozi bo'lib so'kib qoladi. Demak, o'zining han yetti pushtidan kimdir qaqshamog'i muqarrar, uni so'kmog'i-da muqarrar [...].	[...] Parfois, mécontent de cet ancêtre, il l'injurie. C'est-à-dire, il y aura certainement quelqu'un parmi sept générations de ses descendants qui souffrira du même mal et l'injuriera. [...]
[...] Ajabki, biri biridan ziyrak, bijildoq. Demak, anov gap bid'at ekan-da [...].	[...] Fait étonnant que toutes les trois sont percipaces, bavardes. Donc ces affirmations ne sont que l'invention. [...]
[...] Gird-atrofni tomoshapechak qurshagan, qo'g'irchoqdek yasatig'liq ayvonchasida bu dunyoning g'amu g'urbatlaridan yiroq, mangu navqiron opaxonimiz desakmikin, onaxonimiz desakmikin (garchi buvimiz tengi bo'lsa-da!), kaftlarini juftlashtirgancha, barmoqlarini qisirlatib muqom bilan o'yin tushmoqda. Angrayib qolgan Havaskorimizga ko'zi tushib, qosh uchirib qo'yadi. Demak, o'zbek san'ati olamida yaqin ayyomda ajoyib voqea yuz berajak [...]. [6].	[...] Affligé de ce que se passait Amateur élané commença à se reprendre quand au bout de la cour, sur la terrasse bien décorée les colonnes dont étaient couvertes de liserons il vit la danseuse éternelle, loin des problèmes de ce monde, qui interprétait une danse classique en unissant ses paumes et s'entre-frottant les doigts. En apercevant notre Amateur elle fait bouger le sourcil. Cela veut dire qu'encore un grand événement aura lieu dans le monde des arts ouzbeks [...].

Asliyatdagi matnda yozuvchi tomonidan bo'lib o'tayotgan voqeliklarga turlicha munosabatni ifodalovchi **shunga qaramay** (tarjimada *malgré cela*); **shunday qilib, shu tariqa** (tarjimada *ainsi*); **xullas, alhosis, alqissa, qisqasi** (tarjimada *bref, en bref, pour conclure*); **darhaqiqat** (tarjimada *en effet*), **darvoqe, voqean** (tarjimada *à propos*), **umuman olganda** (tarjimada *en général*); **nihoyat** (tarjimada *enfin, finalement*); **avvalo** (tarjimada *premièrement*); **qolaversa** (tarjimada *finalemt, et après, après tout*); **ayniqsa** (tarjimada *surtout*); **axir** (tarjimada *finalemt, pourtant, en effet, car*) kabi konnektorlardan foydalanilgan.

Kogeziya kategoriyasini ifodalovchi ayrim vositalarning badiiy tarjimada aks etishi bo'yicha olib borilgan kichik bir tahlildan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, fransuz

va o'zbek tillaridagi badiiy matnlarda gaplar o'rtasidagi mantiqiy-grammatik bog'liqlikni ifodalash, avval bayon qilingan ma'lumotlar asosida chiqarilgan xulosalarni jamlash maqsadida ko'plab konnektorlar ishlatiladi. Mazkur konnektorlar grammatik kogeziyaning asosiy turlaridan biri sifatida nafaqat badiiy matnlarda, qolaversa, ilmiy, ilmiy-ommabop, publitsistik matnlarda ham keng qo'llaniladi va matn bog'liqligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Matnning asosiy kategoriyasi sifatida kogeziyaning qamrovi kengligini hisobga olgan holda, uning matn va matn bog'liqligida tutgan o'rni masalasida chuqurroq izlanishlar olib borilishi zarur deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. М., 1981.
2. Гальперин И.Р. Интеграция и завершенность текста // Изв. АН СССР. Сер. лит. и яз., 1980. – №6.
3. De Beaugrande R.-A., Dressler W. Introduction to Text Linguistics. London, 1981.
4. Halliday M. A. K., Hasan R. Cohesion in English. London, 1976.
5. Werner A. Terminologie zur neueren Linguistik. – Tübingen: Niemeyer, 1988, Bd. 2.
6. <https://www.kutubxonachi.uz/documents/asar/adabiyot/uzbek/pdf/erkin-azam/pakananing-oshiq-ko-ngli-qissa/#gsc.tab=0>